

# REKTOR QUTLOVI

## BILIMLI YOSHLAR MAMLAKAT TARAQQIYOTINI BELGILAYDI

**Mansur Niyazmetov**

*ISFT rektori*

Insoniyat turli tarixiy jarayonlarni boshdan kechirdi: dastlab, hududlar mamlakat qudratini ko'rsatdi, keyin foydali qazilmalar asosiy o'ringa chiqdi. Endi... ayni vaqtda mamlakat qudratini, uning bilimli yoshlari hal etmoqda.

Haqiqatdan, ilm-fan mamlakat taraqqiyoti va farovonligining asosidir. Ayniqsa, barcha sohada yangiliklarga intilish hamda raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davr, iqtisodiy salohiyatni mustahkamlab borish uchun ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnikaviy yutuqlardan samarali foydalanishni talab etmoqda.

O'zbekiston – qadim zamonlardan beri fan va madaniyat taraflama rivojlanib kelayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar hamda haykaltaroshlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Yangi O'zbekiston olimlari uzoq o'tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o'rganib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo'shamoqdalar.

Bugungi kunda yurtimizda ilm-fan rivoji masalasiga, amaliy va innovatsion tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirda yuqori bilim ko'nikmalari talab qilinib, salohiyatli kadrlarni tayyorlash, malakali mutaxassislar tayyorlovchi tizimlarni keng targ'ib qilish, muhim amaliy-ilmiy natijalardan foydalanishning zamonaviy yo'llarini aniqlash, uni hayotga tatbiq qilish tobora dolzarb tus olmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o'z o'rniiga ega bo'lishi, dunyo ilm-fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, xorijdagi ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalb etish, ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarning xorijda tajriba va malaka oshirishlarini tashkillashtirish maqsadlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Zamon shiddat bilan o'zgarayotgan bir vaqtda barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarish talab etilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri, mazkur sohani hamda olimlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: "Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda".

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan murojaatnomalarining har birida yurtimizda ilm-fanga berilayotgan e'tibor haqida alohida to'xtalib o'tadilar, bu esa mamlakatimizda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini, 2023-yilni mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinganidan ham anglash mumkin.

O'zbekistonda iqtisodiyot, biznes, boshqaruva va pedagogika ta'lim sohalarida yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlaydigan "International School of Finance Technology and Science" instituti ham 2023-2024-yillarda ilmiy-ijodiy va innovatsion g'oyalarni qo'llagan holda, ko'plab yangi loyihalarni boshlamoqda.

2023-yilda ilm-fanga berilgan yuksak e'tibordan ilhomlangan institut ilmiy jamoasi ham o'z oldiga katta marralarga erishishni maqsad qilib qo'ygan.

Bugungi kunda institutimiz professor-o'qituvchilari respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, qator nufuzli tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'z ilmiy maqolalari bilan faol ishtirok etib kelishmoqda.

Institutimizda anaviy ilmiy-nazariyanjumanlar, konferensiya vachetellik mutaxassislar ishtirokidagi ilmiy seminar va treninglar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, "Yangi O'zbekistonda sifatli ta'lim berish muammolari va zamonaviy yechimlari" an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanı, yilda ikki marotaba ACCA (Association of Chartered Certified Accountants – Diplomli va sertifikatlangan buxgalterlar uyushmasi) vakillari bilan ilmiy-amaliy konferensiyalar, "ETS Global" hamda "Research Analysis" vakillari bilan doimiy muloqot va amaliy natijalar shular jumlasidandir. Shuningdek, institut bir qancha xorijiy universitet va ilmiy dargohlar bilan memorandumlar imzolagan bo'lib, bu hamkorliklar ta'lim va ilm-fan yo'nalishlarida o'z samarasini bermoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy rivoji, ma'naviy yuksalishida alohida ahamiyat kasb etuvchi ilm-fan yangiliklari, innovatsion g'oyalari va ishlanmalarni targ'ib qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi, amaliyotga joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilish

maqsadida "International School of Finance Technology and Science" instituti ilmiy jamoasi tomonidan "ISFT" ilmiy-uslubiy elektron jurnalni tashkil etildi.

Iqtisodiyot, biznes boshqaruvi, bank ishi, matematika, informatika, fizika, kimyo, biologiya, maktabgacha ta'lim, pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarjimashunoslik, jurnalistika, siyosatshunoslik kabi fanlar muammolariga tegishli dolzarb ilmiy va amaliy masalalarni yoritish, elektron jurnalning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Shuningdek, texnika, tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va tibbiyat fanlari sohalarining rivojlanish istiqbollari, bu boradagi mavjud muammolar va ularning yechimlari, yaratilayotgan yangiliklar xususida professor-o'quvchilarga ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy maqolalarni tezkorlik bilan yetkazib beradi.

Elektron jurnal ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shish bilan bog'liq takliflar, talablar va tashabbuslar uchun keng maydon bo'lib, nashr mamlakatimizda ilm-fan hamda ta'lim tizimidagi muammo va yutuqlarni ilmiy asoslاب beradigan tadqiqotlar, maqolalar va tezislar bilan axborot maydonidagi o'z o'rниga ega bo'lgan holda, soha nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Biz ana shu yo'lida izlanayotgan jurnal ijodiy jamoasiga muvaffaqiyat tilaymiz!